

QO‘SHMA GAPLARNI O‘QITISHGA OID TAVSIYALAR

Asadova Shahzoda Azizjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti

4-FT(O‘)-24 guruhi talabasi

Ustozi: O‘rinova Maftuna No‘mon qizi

OXU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 9-sinf ona tili darsida o‘tiladigan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarning sintaktik xususiyatlari hamda ularning o‘qitilishiga oid metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sintaksis, qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap, bog‘langan qo‘shma gap, kesim, bog‘lovchi, yuklama.*

Qo‘shma gap sintaksisi 9-sinf ona tili darsligining 2-bo‘limidan boshlab o‘tiladi. Bu mavzu maktab o‘quvchilari uchun ancha murakkab bo‘lgan mavzu hisoblanadi. Shu bois ushbu mavzuni o‘quvchilarga o‘rgatishda darslikda berilgan ma’lumotlardan tashqari o‘qituvchidan yaxshigina bilim va mahorat talab etiladi. Darsliklarimizda qo‘shma gaplar talqini ancha murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan ko‘makchilar, yuklamalar, bog‘lovchilar, fe‘l shakllari, nisbat va ohang orqali bog‘lanadi [1, 26].

“Kesim – gap markazi” degan talqinni o‘quvchilar ongiga singdirmay turib qo‘shma gaplar tasnifini puxta o‘rganib bo‘lmaydi. “Sodda va qo‘shma gaplar” mavzusida “Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Gapda kesim nechtaligiga qarab sodda va qo‘shma gaplarga ajratishga asos bo‘ladi”, – deyiladi. Lisoniy struktura jihatidan qo‘shma gapning sodda gapdan farqi ma’lum darajada ravshan. Aniqrog‘i sodda gapda shakllangan kesim bitta bo‘lsa, qo‘shma gapda u birdan ortiq bo‘ladi. Qo‘shma gaplar birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.

Shakllangan, ya’ni kesimlik shakllari (tasdiq, inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma’nolari) ga ega bo‘lgan kesim alohida hukmni ifodalaydi, muayyan gap markazini tashkil eta oladi. Shuning uchun ikki yoki undan ortiq shakllangan kesimli gaplar (lekin kesimlar uyushiq bo‘lak tarzida bo‘lmasa) qo‘shma gaplar sanaladi” fikrlarini keltirib o‘tish joizdir. Masalan:

1. Siz a’lochi va jamoatchisiz- sodda gap
2. Siz a’lochisiz va jamoatchisiz- qo‘shma gap

Ushbu gaplarda sodda gap va qo‘shma gapning o‘zaro farqi ko‘rsatilgan. Birinchi gapimiz sodda gapdir. Chunki ushbu gapda kesimlarimiz shakllanmagan, ya’ni shaxs-son shakli har bir kesimga qo‘shilmagan. Bu gapda shunchaki kesim uyushgan. Ikkinchi gapimizda esa kesimlar shakllangan, ya’ni shaxs-son shakli har bir kesimga qo‘shilgan.

Qo‘shma gaplarda bog‘lovchi vositalarning qo‘llanishi borasida na...na; o‘xshatish-chog‘ishtirish bog‘lovchisi go‘yo(ki), xuddi(ki); biriktiruv bog‘lovchisi ham yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar mavzusini tushuntirishda ularning bog‘lovchi-yuklama ekanligini aytib o‘tish talab etiladi. Na..., na yordamchisi inkor bog‘lovchisi sanalib kelgan. Tilshunos G‘.Abdurahmonov esa atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egadir. Bog‘lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo‘laklarga inkor ma’nosini berib, ularni bog‘laydi. Na yomg‘ir yog‘adi, na qor yog‘adi. Bu yordamchi so‘z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma’nosini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari o‘quvchilarga bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lashda xizmat qiladigan bo‘lsa so‘zi yordamida gap tuzish vazifasi berilganda aksariyat o‘quvchilar, taxminan “Maktabimizda tadbir bo‘lsa men ham qatnashaman” ko‘rinishidagi gaplarni tuzadilar. Bunday gaplar qismlari shart mayli vositasida bog‘langan ergash gapli qo‘shma gap sanalishini tushuntirish lozim. Ushbu holatda, agar bo‘lsa so‘zi ikkinchi gapning tarkibida qiyoslanayotgan bo‘lakdan so‘ng kelsa, bunday gap bog‘langan qo‘shma gap hisoblanishini aytib o‘tish lozim. Masalan:

- Dono aybni o‘zidan axtaradi, ahmoq bo‘lsa do‘stini ayblaydi - qiyoslash, zidlash munosabati; bog‘langan qo‘shma gap
- Esli-hushli do‘stlaringiz bo‘lsa, biznikiga olib keling – shart munosabati; ergashgan qo‘shma gap

Egallangan bilimni yana ham mstahkamlash uchun o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan audiomatn eshittiriladi. O‘quvchilar bo‘lsa vositasida bog‘langan qo‘shma gap va ergash gapning kesimi bo‘lsa so‘zi bilan ifodalangan ergaashgan qo‘shma gaplarga ajratib beradi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning topqirligi, chaqqonligini bilish uchun bir nechta qo‘shma gaplar beriladi. Ularni qanday bog‘lovchi vosita bilan bog‘langanligini va shunga qarab qo‘shma gap turlarini topish metodi hisoblanadi. Bu metod orqali o‘quvchi mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni yodda saqlaydi va fikrlash doirasi kengayib, topqirligi oshadi. Buning uchun o‘qituvchining intellektual salohiyatiga, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyadan o‘rinli va unumli foydalanishiga bog‘liq. Bunday o‘qituvchidan yurtimiz kelajagi uchun yangicha fikrlaydigan, ertangi kunga nigoh bilan qaraydigan , zamon bilan hamnafas komil insonni shakllantirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarga faqat qoida yodlatish emas, balki shu yodlagan qoidalarini kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish hozirgi zamon ona tili o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Qo‘shma gap turlari haqida berilgan topshiriq va mashqlarni bajarishda har qanday gramatik birlikning semantik xususiyatiga ham e’tibor berish kerak. Til ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarga faqat bilim berish emas, balki bu bilimlar orqali ularning til malakasini oshirish hamdir. Til bo‘yicha egallangan bilim malakaga aylanmas ekan, u keraksiz bo‘lib qolaveradi.

15-Mart, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xliyev B., Shamsiyev M., Ziyodova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2006. – 163 b.
2. Mahmudov N., Nurmatov A., Sobirov A. 9-sinf ona tili darsligi. – Toshkent, 2019. – 64 b.
3. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – 391b.
5. Rasulova N. Ona tilidan ma’ruzalar. – Toshkent, 2018. – 126 b.